ONA TILI VA ADABIYOT

1.Ahmad Yugnakiy "Hibat ul- haqoyiq" asarida dunyoni nimaga o'hshatadi?

A) dengizga B) yobon qushga
C) qo'riq yerga D) ilonga

2. Berilgan qaysi baytda raviy qo'shimcha tarkibida berilgan?

A) Ul na gumbazdir, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunro'sh qizlar manzil aylabdir makon.
B) Ikki mahbubni ko'rdim bir -birisin ko'rmagan,
Ikkisining o'rtasiga, do'stlar, qil ham sig'magan.
C) Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit
D) Ki bulbul nola,afg'on aylamakni mendin o'rgandi.
Vujudim sham'i so'zon aylamakni mendin o'rgandi.

3. Kinoya,qochirim, pichinglarga boy bo'lgan uslubni belgilang.

A) so'zlashuv B) badiiy
C) publisistik D) rasmiy

4. Qaysi qatorda tasdiq ma'nosini ifoda etuvchi gap berilgan?

A) Vatan tuyg'usidan aziz tuyg'u bormikan?
B) Bu daraxtni kesishga kim ham jur'at qilardi?
C) Buni kim ham bilardi?
D) Sevgi sening shirin tilingdan kim o'pmagan, kim tishlamagan?

5. Har kimki vafo qilsa, vafo topg'usidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topg'usidir.
Misralardagi olmoshlar qanday ma'no ifodalagan?

A) to'pdan ajratilgan shaxs ma'nosini ifodalagan
B) shaxs, belgi, harakat-holatni jamlab ifodalagan
C) mavjudlik, voqea haqidagi tasavvurni bildirgan
D) belgini aniqlash uchun qo'llangan

6. O'tirg'il och-u bechora, yalang'och
Vale nokasga aslo bo'lma muhtoj.

A) Sa'diy Sheroziy B) Alisher Navoiy
C) Rudakiy D) Yusuf Xos Hojib

7. Fe'ldan yasalgan sifatlarni toping.
1) ko'tara; 2) egik; 3) jannati; 4) ayrim; 5)g'amxo'r; 6) iliq

A) 1, 2, 4, 6 B) 1, 2, 3
C) 1, 2, 6 D) 1, 2, 4, 5

8. "Yuragimga kirgil, umidim,
Ko'zlarimda turg'il, umidim"
misralari bilan boshlanadigan she'r muallifi va she'r nomini toping.

A) A. Suyun "Unutilgan tillar"
B) Sh. Rahmon "Baxt so'zi"
C) U. Azim "Qush"
D) U. Hamdam "Munojot"

9. Qaysi gapda uyushiq bo'laklar tarkibida fonetik o'zgarish bo'lgan so'zga bog'lanib kelgan?

A) Juda boy va ma'noli tilimiz bor
B) Talaffuz bilan imlo bir-biriga chambarchas bog'liqdir.
C) Eshitib va o'qib o'rganish til vositasida amalga oshadi.
D) So'z, belgi va ma'noning birligidir.

10. Shaxs-son ma'nosini ifodalovchi -m, -ng, -k, -ngiz qo'shimchalari fe'lning qaysi shakllaridan keyin qo'shiladi?

A) kelasi zamon hamda buyruq-istak mayli shakllaridan keyin
B) o'tgan zamonning -b (-ib) shart maylining -sa shakllaridan keyin
C) o'tgan zamonning -di, shart maylining -sa shaklllaridan keyin
D) hozirgi zamon hamda buyruq-istak mayli shakllaridan keyin

11. Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi. Berilgan gapda yasama fe'llar qaysi turkum (lar) dan hosil qilingan?

A) ot,sifat B) son
C) ot D) ot, son

12. Qaysi javobda vazifadosh ko'makchi berilgan?

A) sari, boshida, qadar, maqsadida
B) sababli, oldida, uchun, qarab
C) bilan, orqa, ko'ra, uzra
D) ustida, ichida, qoshida, tomon

13. "Rustamxon" dostonida Rustam qaysi shaharni ajdahodan ozod qiladi?

A) Qurudim B) Bujul
C) Chambil D) Oqtosh

14. Ulki iflosdin ayog'inda
Kavsh yo'li asmi chog'I yo'qtur oning
Shukr qildik boqib birav sori,-
Ki yururg'a ayog;I yo'qtur oning.
Navoiyning ushbu qit'asida qanday qanday hayotiy-timsoliy misol keltirilgan?
A) Sabrning tagi-sariq oltin
B) Oyog'i yo'q kishiga rahmdil bo'lish
C) Mingni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukr qil
D) Salomatlik- tuman boylik

15. Mana shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor, Odilxo'jaboy degan pudratchi bor, matyoqubboy degan ko'nchi bor.
Ushbu gapda nechta shaxs oti qatnashgan?
A) 3 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 7 ta

16. Qaysi gaplardagi xatolik imlo bilan bog'liq?
1. Onasi sirti bilan, ichi tutun ayollardan edi.
2. Dugonajon, bugun menikiga tahrif buyurarsan?
3. Boqqa chiqsam, maylimi? Gullar tersam maylimi?
4. Bu tarixiy voqea 1991-yil sodir bo'ldi.
A) 1,2,3,4 B) 1,3,4 C) 3,4 D) 1,3

17. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o'zini eng avvalo O'zbekiston fuqarosi deb shundan keyingina muayyan hudud vakili aytaylik xorazmlik samarqandlik yoki Farg'ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. (I.Karimov)
Ushbu gapda necha o'rinda vergul qo'llanilishi lozim?
A) 6 B) 4 C) 7 D) 5

18. Krossvord so'ziing ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) inglizcha "cross" -" krest", "word"- "bo'lma, xona"
B) inglizcha "cross"- "aylanma", "word" -"so'z"
C) inglizcha "cross"-"krest" va "word"- "so'z"
D) inglizcha "cross"- "yugurish" "word"- "tez"

19. U qalbini to'zonday vayronaga aylantirgan g'am to'lqinini butunlay chiqarib tashlash uchun qadrdon cholg'usini qo'liga oldi-yu, uchqun sochayotgan gulxan yoniga bordi.
Ushbu gapdagi ism asosli yasama so'zlarning nechtasida omonim qo'shimcha mavjud?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

20. Taraqqiy topgan ma'rifatli dunyo bilan birga yashashimiz, hamkorlikni kuchaytirishimiz hamdo'stlik rishtalarini mustahkamlashimizni hayotning o'zi taqozo etmoqda.
Ushbu gapda necha o'rinda yasama so'z ishtirok etgan?
A) 6 B) 7 C) 5 D) 8

21. Abdulla avloniyning "Advokatlik osonmi?" pyesasida "eri bilan urishib, chiqmoqchi bo'lgan xotun" kim edi?
A) Mehriniso B) Mastura
C) Oyxon D) Soraxon

22. Furqatning ishqiy kechinmalar, oshiqona savol-javoblar shoir bilan bog'liq qismat chizgilariga ulanib ketgan g'azalini belgilang.
A) "Bir qamar siymoni ko'rdim baldayi Kashmirda"
B) "Saboga xitob "
C) "Surmadin ko'zlar qaro"
D) "Manam sho'rida bulbul"

23. Jigarim otashga tegardi jiz-jiz
Sochlarim oqargan shunda, ehtimol.
Berilgan she'riy parchada alohida so'z turkumiga kiruvchi so'zlar soni nechta?
A) 1ta B) 2ta C) 3ta D) 4ta

24. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?
Ushbu jumla xalq og'zaki ijodining qaysi janriga mansub?
A) metal B) topishmoq
C) tez aytish D) maqol

25. Havola bo'lak ishtirok etgan aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
A) Kim birovga yaxshilik qilsa, unga ham yaxshilik qaytadi.
B) Sizni qo'rqib ketmasin deb, kechqurun bezovta qilmadik.
C) Sevgi shunday navbahorki, u tikondin gul qilur.
D) Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.

26. Hosil bo'lish usuliga ko'ra bir guruhga kiruvchi undoshlardan iborat so'zlarni toping
A) balo, bulbul, ro'mol B) talab, ming, ranj
C) vafo, bid'at, soy D) to'xta, feruz, iqbol

27. Shundan keyin beshala qit'adan minglab oshig'I shaydo o'z sevgisini unga izhor eta boshladi.
Berilgan gapda sonning qaysi turlari ishtirok etgan?
A) dona va tartib B) tartib va jamlovchi
C) sanoq va chama D) jamlovchi va chama

28. Qaysi javobda ham sifat, ham ravish yasovchi shakldosh qo'shimchalar berilgan?
A) -iy, -viy B) -siz, -be
C) -at, yat D) -an, yat

29. Daraxshon yulduzlar sari o'kirgan,
Bo'ynida zanjir-u, qalbi ozod sher.
G'afur G'ulom ushbu misralarida kim haqida fikr bildirgan?
A) Alisher Navoiy
B) Mirzo Ulug'bek
C) Boborahim Mashrab
D) Zahiriddin Muhammad Bobur

30.Tilagim shu: hamma bilan yaxshi muomalada bo'ling.
Ushbu gap Grammatik asoslar miqdoriga ko'ra qanday gap?
A) kesim ergsh gapli qo'shma gap
B) bog'langan qo'shma gap
C) bog'lovchisiz qo'shma gap
D) havola bo'lakli qo'shma gap

31. Yumshoq paxta qattiq mehnatning mahsulidir. Gapda fonetik qoida asosida yozilgan so'z hokim bo'lakka qaysi usulda tobelangan?
A) bitishuv B) boshqaruv, bitishuv
C) boshqaruv D) moslashuv

32. Chuqur ma'noli va quyma shaklda kelgan hikmatli so'zlar, ibratli hikoyalar asosida qurilgan asarlar nomi keltirilgan javobni belgilang.
A) "Guliston", "sadoqatnoma", "Nazm ul-javohir"
B) "Bo'ston", "Guliston", "Sab'ayi sayyor"
C) "Mahbub ul- qulub", "Saddi Iskandariy"
D) "Sadoqatnoma", "Zarbulmasal"

33. Ko'zung balosi bilan jonga tegdi, Sakkokiy,
Dag'i ne qilgusi bilmon, oxir bu makkora.
Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'at turini toping.
A) iyhom B) tashbeh
C) tazod D) tajohil ul-orif

34. Quyidagi gapda qo'llangan ism asosli yasama so'zlarda qanday tovush o'zgarishlari sodir bo'lgan? Yigitga qo'yilgan ayblovlar shundan dalolat beradiki, tergovchilar uning o'rnatilgan tartibni yaxshi anglamaganini hisobga olmasdan xulosa chiqarishga shoshilishgan. (Gazetadan)
A) 4 ta tovush almashinishi
B) 1 ta tovush tushishi va 2 ta tovush almashinishi
C) 1 ta tovush orttirilishi, 1 ta tovush tushishi va 3 ta tovush almashinishi
D) 3ta tovush almashinishi, 1 ta tovush tushishi

35. Ona-u, bag'rida millat beshigi,
Qalbida yopilmas qadr eshigi,
Allasi oromdir- hayot qo'shig'I,
Ayol omon bo'lsa, dunyo go'zaldir. (Mahmud Toir)
Ushbu she'riy parcha murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub?
A) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap
B) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
C) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
D) aralash murakkab qo'shma gap

36. Berilgan so'zlarning qaysi birida shakldoshlik uch so'z turkumi doirasida yuz beradi?
1) oshiq; 2) tik; 3) uch; 4) kez; 5) qoq; 6) o'ch
A) 1,2,3,4 B) 1,3,4,6
C) 1,2,3,5,6 D) 1,2,4,5,6

ONA TILI VA ADABIYOT

1.To'g'ri hukmni aniqlang.
1) ot va sifat yasovchi qo'shimcha –q qo'shilganda asosda tovush almashishi mumkin; 2) ot va sifat yasovchi qo'shimcha –qi qo'shilganda asosda tovush almashishi mumkin; 3) –ay fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilganda asosda bir emas 2 xil fonetik hodisa bo'lishi mumkin; 4) –a fe'l yasovchi qo'shimcha ta'sirida asosda tovush almashishi yoki tovush tushishi mumkin; 5) –ar fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilganda asosda fonetik hodisa kuzatilmaydi
A) 1,2 B) 1, 3, 4 C) 1,4, 5 D) 1,2,3,4,5

2. Na kecha na kunduz beradi tinchlik
Yoz, deydi azizim ma qalam daftar!
Ushbu gapda qo'yilishi kerak bo'lgan vergullar soni to'g'ri berilgan qatorni toping.
A) 5 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 4ta

3. -lik qo'shimchasi haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?
A) shaxs oti yasaydi
B) o'rin-joy oti yasaydi
C) faoliyat-jarayon oti yasaydi
D) mavhum ot yasaydi

4. Shaxs-son qo'shimchalari bilan shakldoshlik qila olmaydigan egalik qo'shimchalarini toping.
1) -m; 2) -im; 3) -imiz; 4) -man; 5) -ng; 6) -ngiz
A) 1.3.5.6 B) 1,2,3,4,6
C) faqat 4 D) 2,3

5. Fe'lning qaysi vazifa shakllari kelishik shakli bilan turlangan so'zni boshqara oladi?
A) faqat sifatdosh
B) fe'lning barcha vazifa shakllari
C) faqat ravishdosh
D) faqat harakat nomi

6."Egam rahm aylasin qonli yoshima,
Sabab bo'lib qo'ngin teng-u to'shima"
"Alpomish" dostonidan olingan ushbu nola kimning tilidan Boychiborga nisbatan murojaat tarzida aytilgan?
A) Qaldirg'och B) Qorajon
C) Barchin D) Alpomish

7. "Odam bolasi tug'ilgan paytda pokiza bo'ladi. Uning umrbod pokiza bo'lib qolishi hammaga bog'liq."
"Bahor qaytmaydi" qissasidagi ushbu fikrlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?
A) Mutal B) Anvar
C) Muqaddam D) Alimardon

8. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?
Ushbu jumla xalq og'zaki ijodining qaysi janriga mansub?
A) tez aytish B) topishmoq
C) metal D) maqol

9. Qaysi javobda ham sifat, ham ravish yasovchi shakldosh qo'shimchalar berilgan?
A) -iy,-viy B) -at, -yat
C) -an, -yat D) -siz, -be

10. Yomon bilan ulfat bo'lma, yur yiroq,
Yo'lingga don sochib, qo'yadi tuzoq.
Yoyni egri ko'rib, to'g'riligidan-
O'q undan qanchalik qochganiga boq.
She'r muallifi kim?
A) Mashrab B) Ahmad Yassaviy
C) Pahlavon MahmudD) Bobur

11. Ushbu san'atning bir sharti shu: ikki yoki undan ortiq ma'noning biri aniq yuzaga chiqib turadi-yu, asl maqsad ana o'sha yashirinibroq yotgan ma'no bo'ladi.
Yuqorida qaysi san'atga ta'rif berilgan?
A) talmeh B) tazod
C) iyhom D) takrir

12. Umidaning "sen" degani Hafizaga juda yoqdi-bu juda yaqinlik belgisi.
Tilning barcha o'rinlarida hosil bo'luvchi undoshlargina ishtirok etgan so'z qaysi gap bo'lagi bo'lib kelgan?
A) aniqlovchi B) kesim
C) ega D) hol

13.Tilagim shu: hamma bilan yaxshi muomalada bo'ling.
Ushbu gap Grammatik asoslar miqdoriga ko'ra qanday gap?
A) bog'lovchisiz qo'shma gap
B) havola bo'lakli qo'shma gap

C) kesim ergash gapli qo'shma gap
D) bog'langan qo'shma gap

14. Atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'z qatnashgan gapni toping
A) Hamma bo'layotgan voqealardan tang ahvolda qoldi
B) Ertalabki salqin havo kishiga huzur bag'ishlaydi
C) Bolalar ertalab sayhonlikka kelishdi.
D) Aziz televizorni o'chirib, kitobii qo'liga oldi.

15. Qaysi gapda ravish ishtirok etmagan?
A) ahmadjon … urushga beto'xtov yuborilishini kutardi. (A. Qahhor)
B) Juda betinim odam ekansiz. Nega muncha ovoragarchilik. (Oybek)
C) Boyning himmati tutib ketib, moshxo'rdani tog'orada oib chiqib, dasturxonga qo'ydi. (G'.G'ulom)
D) Nazokat bexosdan berilgan bu so'roqqa javob berishga o'ng'aysizlanib, uzoqda sarg'ayib turgan adirlarga tikildi. (S. Ahmad.)

16. So'z va leksema haqida bildirilgan qaysi fikr to'g'ri?
A) ikkalasi ham morfologiya, ham leksikologiya birligi
B) so'z ham, leksema ham morfologiya birligi
C) so'z morfologiya birligi, leksema leksikologiya birligi
D) so'z ham, leksema ham leksikologiya birligi

17. "Zarbulmasal" da keltirilgan "yaxshi ishni bajarish uchun fol ochib o'tirish shart emas" degan fikr qaysi shirga tegishli?
A) Firdavsiy B) Rudakiy
C) Mashrab D) Hofiz Sheroziy

18. Tobe bog'lanishni ko'rsating.
A) og'zi qulog'iga yetmoq B) tun bo'yi
C) yoshlar va qarilar D) Saida bilan kelmoq

19. Nodar Dumbadzening qaysi asarlarida ikkinchi jahon urushi yillarida gruzin qishloqlaridagi og'ir va mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o'xshamaydigan taqdir egalari obrazi aks etgan?
A) "Oq bayroqlar", "Quyosh kechasi"
B) "Quyoshni ko'ryapman", "Men, buvim, Iliko va Illarion"
C) "Quyoshni ko'ryapman", "Oq bayroqlar"
D) "Qishloq bolalari", "Quyosh kechasi"

20. Dil qonasa, ona tuproq em bo'ladi,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
(Iqbol Mirzo)
Ushbu she'riy parchada gapning ifoda maqsadiga ko'ra qaysi turlari ishtirok etgan?
1) Darak gap; 2) so'roq gap; 3) buyruq gap; 4) istak gap
A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 3, 4 D) 1,2, 4

21. Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" pyesasida "to'y qilib qarzdor bo'lg'on arobakash kim edi?"
A) Xushvaqt B) Davronbek
C) Haydarali D) Egamberdi

22. Qaysi javobdagi buyruq-xitob undovlari insonga nisbatan ham qo'llanish mumkin?
A) chuh, kisht, hoy B) ey, hoy, xo'sh
C) iye, pisht, hay D) tss, iye, hey

23. Quyidagi gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
Kishi dardiga kim hamdard emasdur,
Kishi nazdida ul mard emasdur …
A) hol ergash gapli qo'shma gap
B) bog'lovchisiz qo'shma gap
C) qismlari uyushgan qo'shma gap
D) ega ergash gapli qo'shma gap

24. Najmiddin Kubroga tegishli bo'lgan asar va uning izohini to'g'ri toping.
A) "Al usul al-ashara" ("O'n usul")
B) "Maslak ul-muttaqiyn" ("Taqvodorlar maslagi")
C) "Al-adab al- mufrad" ("Adab durdonalari")
D) "Riyoz ud-davla" ("Saltanat bog'lari")

25. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z oid bo'ladigan barcha so'z turkum(lar)ini ko'rsating.
1) ot; 2) olmosh; 3)fe'l
A) 1 B) 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 1, 2

26. Qaysi qo'shma gapdagi yasama so'z paronimiga ega?
A) Mana, sen ketding-u, bo'ldim xayolkash

B) Atrof jimjit, go'yo borliq uyquga ketgan.
C) ayrilgnni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer
D) Quyosh hamal burjiga kirib, kunlar isiy boshladi.

27. Daraxshon yulduzlar sari o'kirgan,
Bo'ynida zanjir-u, qalbi ozod sher.
G'afur G'ulom ushbu misralarida kim haqida fikr bildirgan?
A) Zahiriddin Muhammad Bobur
B) Boborahim Mashrab
C) Mirzo Ulug'bek
D) Alisher Navoiy

28. Qaysi qatordagi so'zlar xato yozilgan?
A) tarjimayi hol, dardi bedavo, nuqtayi nazar
B) foto-apparat, yildan-yilga, tele tanov
C) bir zum, hamma vaqt, sen-chun
D) bug'doyrang, maymunsifat, ertapishar

29. Firdavs, Jaloliddin va Ahmad biz bilan o'qishadi. Ushbu gapda uyushiq bo'laklar tarkibida kelgan va bog'lovchisi haqida bildirilgan qaysi hukm to'g'ri?
A) shaxslarning guruh-guruh ekanligini ifodalagan
B) uyushiq bo'laklarning navbatma-navbatligini ifodalagan
C) oxirgi uyushiq bo'lakni alohida ta'kidlagan
D) sanashning tugallanganligini bildirgan

30. Mashhur qora qashqa ayg'irning chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi. Berilgan gapda yasama fe'llar qaysi turkum(lar)dan hosil qilingan?
A) ot B) son C) ot, sifat D) ot, son

31. Guvohnoma, nizom kabi hujjatlar qo'llanishi, maqsad va vazifasiga ko'ra qanday turdagi hujjat hisoblanadi?
A) xizmat yozishmalari
B) farmoyish hujjatlari
C) tashkiliy hujjatlar
D) ma'lumot-axborot hujjatlari

32. Quyida men tosh boshimni urmagan ostona yo'q,
Elda bor shunday masal: jon chekmasang jonona yo'q.
Ushbu baytda qanday badiiy san'at qo'llangan?
A) mubolag'a B) irsoli masal
C) tanosub D) savol javob

33. Ushbu ko'chirma gap soda gapga aylantirilganda so'roq olmoshi qanday sintaktik vazifa bajaradi?
Luqmoni Hakimdan so'radilar:
"Odamlarning dahosi kim?"
Javob berdilar: "Hayot tashvishidan diltang bo'lmagani".
A)hol
B) kesim
C) qaratqich-aniqlovchi
D) to'ldiruvchi

34. Nizomiy Ganjaviyning "Xisrav va Shirin" dostoni kimning iltimosiga ko'ra yozilgan?
A) Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohning
B) Alovuddin Ko'rpa Arslonning
C) Shirvonshohlardan Axsatan I ning
D) Iroq hukmdori To'rg'ul II ning

35. Hindubek turkey, forsiy tillarni mukammal o'rgangan ilmli, ma'rifatli, dilkash kishi bo'lganligi uchun Boburning eng yaqin beklari qatoriga kirgan edi. (P. Qodirov)
Ushbu gapda nechta sifat mavjud handa ulardan nechtasi yasama sifat hisoblanadi?
A) 7ta sifat; 4 tasi yasama
B) 7ta sifat; 5ta yasama
C) 6ta sifat; 4tasi yasama
D) 6ta sifat; 5tasi yasama

36. Acchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar.
Ushbu gapda asos va bo'g'in teng keladigan so'zlar sonini aniqlang.
A) 1ta B) 2ta C) 3ta D) 4ta

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Nizomiy Ganjaviyning Shoh Bahromga bag'ishlangan "Haft paykar" dostoni kimning topshirig'iga ko'ra yozilgan?
A) Iroq hukmdori To'rg'ul II ning
B) Arzinjon hokimi Faxriddin Baxromshohning
C) Alovuddin Ko'rpa Arslonning
D) Shirvonshoxlardan Axsatan I ning

2. Farzand ona nasihatlarini jon qulog'I bilan eshitshi, to'g'ri yo'lga targ'ib etsa, qarshilik qilmasligi, ota yoki onadan birortasi ish buyursa, shu buyurilgan ishda xatolik borligini sezsa ham, qattiq gapirmasligi, kulib turib, bu ishda xatolik borligini yumshoqlik bilan isbot qilib, ularni ko'ndirishi lozim.
Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini toping.
A)11 ta B) 8 ta C) 9 ta D) 10 ta

3. Qaysi ijodkor o'zini muhit erkiga topshirgan va o'zini muhit girdobida bir somon parchaga qiyoslaydi?
A) U.Nosir B) Cho'lpon
C) M.Shayxzoda D) A.Oripov

4. Qaysi javobda qo'shma gap berilgan?
A) Tog'ora-yu savatlarda kata minorga o'xshatib terib qo'yilgan …….. , anjirlar-u, xirmon qilib uyib tashlangan qovun-tarvuzlardagi oq-u qora, ko'k-u ……. Olamdagi hamma rang bir-biri bilan rang talashadi.
B) Ona diyor – O'zbekiston – mening aziz Vatanim.
C) Quyoshning nuri, yerning sharbatini shimib pishgan zilday ………… qo'lingizga olib bir hidlasangiz, …….. qovun polizga borib qaytganning savobini topasiz.
D) Ayt, kirsin.

5. Har kimki vafo qilsa, vafo topg'usidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topg'usidir.
Misralardagi olmoshlar qanday ma'no ifodalagan?
A) mavjudlik, voqea haqidagi tasavvurni bildirgan
B) belgini aniqlash uchun qo'llangan
C) to'pdan ajratilgan shaxs ma'nosini ifodalagan
D) shaxs, belgi, harakat-holatni jamab ifodalagan

6. Quyida men boshimni urmagan ostona yo'q,
Elda bor shunday masal: jon chekmasang
jonona yo'q.
Ushbu baytda qanday badiiy san'at qo'llangan?
A) mubolag'a B) irsoli masal
C) tanosub D) savol javob

7. Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
(Iqbol Mirzo)
Ushbu she'riy parchada egalarni aniqlang.
A) suvlar, nazar, do'stim B) sen, sen, sen
C) sen, sen, sen, Vatan D) sen, sen, sen, do'stim

8. Qaysi gapda asosi ot bo'lgan yasama ravishda tovush o'zgarishi mavjud?
A) O'quv yurtlarida telefondan foydalanish qat'iyan man etiladi.
B) O'zbekcha oshni yemabsiz, bu dunyoga kelmabsiz!
C) Kamol o'g'rincha nazar bilan tezgina unga qarab oldi.
D) Bulbul – sayroqi qush.

9. Oybekning " Navoiy" romanida Alisher Navoiyni kim "she'rning sheri" deb ataydi?
A) Husayn Bayqaro
B) Abdurahmon Jomiy
C) Kamoliddin Behzod
D) Badiuzzamon Mirzo

10. Shaxs-son ma'nosini ifodalovchi -m, -ng, -k, -ngiz qo'shimchalari fe'lning qaysi shakllaridan keyin qo'shiladi?
A) hozirgi zamon hamda buyruq-istak mayli shakllaridan keyin
B) o'tgan zamonning -b(-ib), shart maylining –sa shakllaridan keyin
C) kelasi zamon hamda buyruq-istak mayli shakllaridan keyin
D) o'tgan zamonning -di, shart maylining -sa shakllaridan keyin

11. Kinoya, qochirim, pichinglarga boy bo'lgan uslubni belgilang.
A) rasmiy B) so'zlashuv C) publitsistik D) badiiy

12. Sof o'zbekcha so'zlarni toping.
A) musht, ust B) barg, baxt

C) yilt, turt D) baxt, qurt

13. Qaysi fe'llar so'zlovchining fe'ldan anglashilgan harakat-holatga munosabatini bildirishga ko'ra farqlanadi? mayllar
A) o'qiydi, o'qisa, o'qisin
B) o'qidim, o'qiding, o'qidi
C) o'qiyapman, o'qibman, o'qimoqchiman
D) o'qidi, o'qitdi, o'qildi

14. Yuklama bog'lovchilar haqidagi to'g'ri fikrlarni aniqlang.
1) ular biriktiruv bog'lovchilariga kiradi; 2) ular zidlov bog'lovchilariga kiradi; 3) yuklama bog'lovchilar faqat qo'shimcha shaklda bo'ladi; 4) ular faqat uyushiq bo'laklarni teng munosabatda bog'laydi
A)1,2,4 B) 1,3 C) 1,2,3,4 D) 1,2

15. Qaysi javobda bitishuv bog'lanishli so'z birikmalari berilgan?
A) chiroyli kiyinmoq, mehribon buvi, oltin soat, shirin olma
B) qizil gul, sho'x bola, Vatanni sevmoq, do'stiga gapirmoq
C) yosh hunarmand, kamgap odam, elga manzur, yorni kutmoq
D) aziz Vatan, onani sevmoq, onaga hurmat, chaqqon bola

16. Shoir R.Musurmonning "Odam Otaning nasliga beshlik bo'lgan tog'larim, Momo Havoning vasliga oshiq bo'lgan bog'larim", deb boshlanuvchi she'rining har bir bandi qaysi misra bilan boshlanadi?
A) Olamda boshqa hech O'zbekiston yo'q.
B) Ruhimni shod etay desang, xalq bo'l, elim.
C) Ohuvva-hay, Vatanim.
D) Aytgil do'stim, nima qildik vatan uchun.

17. Kesimlarning asosi omonim xarakterga ega bo'lgan bog'langan qo'shma gapni toping.
A) Po'lat qoplangan zalvorli eshik g'ichirlab ochildi-yu, qoron'i bo'shliq ko'rindi.
B) Suv sohilni yemirar, alam – dilni.
C) Mukammal ko'rmoqchi bo'ldik dunyoni,
Yetuk bo'lolmadik o'zimiz biroq.
D) Yaxshilik yaxshi nom keltirar, saxovat esa kishini baxtiyor qiladi

18. Qaysi gapda ravish ishtirok etmagan?
A) Nazokat bexosdan berilgan bu so'roqqa javob berishga o'ng'aysizlanib, uzoqda sarg'ayib turgan adirlarga tikildi. (S.Ahmad)
B) Ahmadjon . . . urushga beto'xtov yuborilishini kutardi. (A.Qahhor)
C) Boyning himmati tutib ketib, moshxo'rdani tog'orada olib chiqib, dasturxonga qo'ydi. (G'.G'ulom)
D) Juda betinim odam ekansiz. Nega muncha ovaragarchilik. (Oybek)

19. Qaysi ijodkor taxallusi Muhammad alayhissalomga hali payg'ambarlik berilmay turib, daragini ilohiy kitoblardan eshitib, unga g'oyibona muhabbat qo'ygan valiy zot nomi bilan bog'liq?
A) Rudakiy B) Maxmur C) Uvaysiy D) Foniy

20. Qaysi qatordagi so'zlar xato yozilgan?
A) bug'doyrang, maymunsifat, ertapishar
B) foto-apparat, yildan-yilga, tele tanlov
C) tarjimayi hol, dardi bedavo, nuqtayi nazar
D) bir zum, hamma vaqt, sen-chun

21. Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko'rgil o'zingga sen,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
(Iqbol Mirzo)
Ushbu she'riy parchada turdosh otning qaysi turi qo'llangan?
1) shaxs oti; 2) narsa oti; 3) o'rin-joy oti
A) 2,3 B) 1,2,3 C) 1,2 D) 1,3

22. "Valiytarosh", "abuljannob" kabi nom va laqabi bo'lgan zot kim?
A) Ahmad Yassaviy B) So'fi Olloyor
C) Najmiddin Kubro D) Bahouddin Naqshbandiy

23. Na kecha na kunduz beradi tinchlik
Yoz deydi azizim ma qalam daftar!
Ushbu gapda qo'yilishi kerak bo'lgan vergullar soni to'g'ri berilgan qatorni toping.
A)6 ta B) 7 ta C) 4 ta D) 5 ta

24. Mahtumqulining "Adolat yaxshi" she'rida qaysi xalq dostoni qahramoni nomi keltirilgan?
A) Go'ro'g'li B) Alpomish
C) Avazxon D) Rustami doston

25. Xorazm shevasida qo'llanadigan "uchak" so'zi adabiy tilda qanday ma'no anglatadi?
A) ichak-chavoq B) uchish C) tom D) samolyot

26. Vatanning kun sayin obod bo'layotgani, yangi yo'llar, muhtasham inshootlar barpo etilayotgani yurtdoshlarimiz qalbiga faxr-iftixor baxsh etmoqda. Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushgan?
A) ega, sifatlovchi aniqlovchi
B) qaratqich aniqlovchi
C) ega, qaratqich aniqlovchi
D) ega

27. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?
Ushbu jumla xalq og'zaki ijodining qaysi janriga mansub?
A) metal B) topishmoq C) tez aytish D) maqol

28. Chuqur ma'noli va quyma shaklda kelgan hikmatli so'zlar, ibratli hikoyalar asosida qurilgan asarlar nomi keltirilgan javobni belgilang.
A) "Bo'ston", "Guliston", "Sab'ayi sayyor"
B) "Sadoqatnooma", "Zarbulmasal"
C) "Mahbub ul-qulub", "Saddi Iskandariy"
D) "Gulistoon", "Sadoqatnoma", "Nazm ul-javohir"

29. Holatga taqlid so'z berilgan javobni toping.
A) Tokchdagi chiroq lip-lip yona boshladi.
B) Qozondagi ovqat bilq-bilq qaynay boshladi
C) G'o'ng'irdan uyg'onib ketdim.
D) Musichalarning g'uv-g'uvi ham eshitilmay qoldi.

30. Berilgan gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha mavjud?
Ikki yasharli o'g'lini shifokor ko'rigiga olib kelgan ekan.
A)3ta B) 4 ta C) 5 ta D) 2ta

31. Obi hayvondek suzuk suv har taraf aylab ravon,
Qildi sahroga tarovat o'zgacha paydo bahor.
Ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llangan?
A) tasba va tasdir
B) tashxis va tashbeh
C) kitobot va tashxis
D) mubolag'a va tashbeh

32. Qaysi qatorda qatnashgan bir necha ergash gapli qo'shma gap ega ergash gapli qo'shma sanaladi?
A) O'zbek yoshlarining peshonasi shuning uchun yorug', iqboli balandki, ularning O'zbekistondek yurti bor.
B) Kimning qo'lidan yaxshilik kelmasa, u yomonlik qilishdan saqlansin, yomon ishlardan tiyilsin.
C) Shu narsa esingizda bo'lsinki, shuni unutmangki, bilimli kishi hamisha boshqalardan oldinda yuradi.
D) Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havosini olsa, kim qilayotgan ishidan bir nima chiqishiga ishonsa, o'sha zarbdor bo'ladi.

33. U qalbini to'zonday vayronaga aylantirgan g'am to'lqinini butunlay chiqarib tashlash uchun qadrdon cholg'usini qo'liga oldi-yu, uchqun sochayotgan gulxan yoniga bordi.
Ushbu gapdagi ism asosli yasama so'zlarning nechtasida omonim qo'shimcha mavjud?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

34. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'gli, Nurmon Abduvoy o'g'li, Egamberdi Ollamuroddan qaysi doston yozib olingan?
A) "Malika ayyor" B) "Alpomish"
C) "Ravshan" D) "Kuntug'mish"

35. Qaysi gapda orttirma darajadagi sifat egaga bog'lanib kelgan?
A) Ko'm-ko'k osmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq bulutlar yonayotgandek lovullardi.
B) Inson tabiatning eng ongli farzandi.
C) Qor tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi.
D) Hozir ular uchun eng bexatar yo'l Toshkent edi.

36. Havola bo'lakli qo'shma gaplarda ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar qaysi javobda to'gri berilgan?
A) -ki yuklamasi
B) -ki yuklamasi va nisbiy so'zlar, fe'lning shart mayli qo'shimchasi –sa
C) -ki yuklamasi va nisbiy so'zlar
D) nisbiy so'zlar

ONA TILI VA ADABIYOT

1.Qaysi so'zlarda n undoshi qo'yiladi?
1) sara..jom; 2) su..bul; 3) ta..bur (cholg'u asbobi); 4) ta..beh
A) 3,4 B) 4 C) 1,2,4, D) 1,2,3,4,

2. Xalq dostonlaridagi qaysi qahramonni bir to`da qizlar qip-qizil tentakka chiqarichdi?
A) Kuntug`mich B) Ravchan
C) Alpomich D) Qorajon

3. Qaysi gapda omonim (shakldoch) qo`chimchali tub va yasama so`zlar mavjud?
A) Fazliddin o`chirg`ich bilan chizg`ichni olib opasiga berdi.
B) Mehmonlardan biri to'kin dasturxon atrofida o'tirib,"yashirin" suhbat qildi.
C) Olimjonga gapim ta'sir qildi, shekilli,terim vaqti kiyadigan kiyimlarini ko'zdan kechirdi.
D) Nozim tuz ,Erkin, axir erkin zamondir bu zaon.

4. Quyidagi gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
Kishi dardiga kim hamdard emasdur,
Kishi nazdida ul mard emasdur …
A) qismlari uyushgan qo'shma gap
B) ega ergash gapli qo'shma gap
C) bog'lovchisiz qo'shma gap
D) hol ergash gapli qo'shma gap

5. Atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'z qatnashgan gapni toping.
A) Ertalabki salqin havo kishiga huzur bag'ishlaydi.
B) Hamma bo'layotgan voqealardan tang ahvolda qoldi.
C) Bolalar ertalab sayhonlikka kelishdi
D) Aziz televizorni o'chirib, kitobini qo'lga oldi.

6. Quyidagi qaysi juftlikdagi so'z yasovchi qo'shimchalar o'rtasida shakldoshlikni kuzatish mumkin.?
A) yuzlab-haftalab
B) chirik-ko'rik
C) bsqin-toshqin
D) yulg'ich-so'rg'ich

7. Ushbu ko'chirma gap soda gapga aylantirilganida so'roq olmoshi qanday sintaktik vazifa bajaradi?
Luqmoni Hakimdan so'radilar:
"Odamlarning dahosi kim?"
Javob berdilar : "Hayot tashvishidan diltang bo'lmagani".
A) hol B) to'ldiruvchi
C) kesim D) qaratqich-aniqlovchi

8. Maylni qo'yki, vola-u zor ul,
Jon berib vaslig'a xaridor ul.
Bo'ylakim hajr qo'ydi bag'rig'a dog',
Manzil o'lmish edi anga ul bog'.
Ushbu misralar "Mehr va Suhayl" dostonida qaysi qahramon ruhiy holatini aks ettirgan?
A) Jobir B) Suhayl
C) Navdar D) Mehr

9. Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, ko'cha-ko'yda, mahallada o'zini tutishi, do'stlari orasidagi mavqeyi, oila yumushlariga qo'shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim.
Ushbu gapda qaysi bo'laklar uyushgan?
A) faqat vositali to'ldiruvchi
B) vositali to'ldiruvchi, o'rin holi
C) faqat o'rin holi
D) ega, vositali to'ldiruvchi

10. Ushbu parchada nechta soda gap mavjud?
Luqmoni Hakimdan so'radilar:
"Odamlarning daosi kim?" javob berdilar:
"Hayot tashvishidan diltang bo'lmagani".
A) 4 B) 5 C) 3 D) 2

11. Shuhrat frontdan qaytgach, urush mavzusidagi qaysi asarlarini yozgan?
A) "Shinelli yillar", "Farzand", "So'lmas chechaklar"
B) "Shinelli yillar", "Mehrol", "Raymonda"
C) "So'lmas chechaklar", "Mardlik afsonasi", "Jannat qidirganlar"
D) "Mardlik afsonasi", "Farzand", "Orzu va qasos"

12. Movarounnahrda birinchi bo'lib hadis to'plamini jamlagan muhaddis kim edi?
A) Imom at-Termiziy
B) Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy
C) Boqirg'oniy
D) Imom al-Buxoriy

13. O'z nafsini mag'lub etgan marddir,
G'iybatdan uzoq ketolgan marddir.

Nomard tegib o'tar yiqilganlarga,
Ojizlar qo'lini tutolgan marddir. (Rudakiy)
Ushbu she'rdagi ot-kesimli gaplar sonini aniqlang.
A) 3ta B) 2ta C) 1ta D) 4ta

14. "Odam bolasi tug'ilgan paytda pokiza bo'ladi. Uning umrbod pokiza bo'lib qolishi hammaga bog'liq".
"Bahor qaytmaydi"qissasidagi ushbu fikrlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?
A) Alimardon B) Mutal
C) Anvar D) Muqaddam

15. Markaziy Osiyoning erksevar, mard va jasur xalqi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi.
Ushbu gapdagi sifatlar sonini ko'rsating.
A) 5 B) 4 C) 2 D) 3

16. Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?"pyesasida "mol yo'qotgan dudug'" kim edi?
A) Egamberdi B) Haydarali
C) Xushvaqt D) Davronbek

17. Namozboyga o'q o'tmas emish, e tavba, qilich ham chopmas emish. ( X. to'xtaboyev)
Ushbu gapdagi emish to'liqsiz fe'li qaysi javobda to'g'ri izohlangan?
A) bo'lishsiz, II shaxs shaklida, qisqarmagan, otga bog'langan
B) bo'lishli, III shaxs shaklida, qisqargan, sifatga bog'langan
C) bo'lishli,III shaxs shaklida, qisqarmagan, fe'lga bog'langan
D) bo'lishli, II shaxs shaklida, qisqarmagan, ravishga bog'langan

18. Daliliy ma'lumot, ilmiy xulosa, fikrning aniqligi,mantiqiy izchillik
Ushbu so'z birikmalari qaysi uslubga xos, undagi so'zlar o'zaro qanday birikkan?
A) badiiy uslub B) ilmiy uslub
C) adabiy uslub D) rasmiy uslub

19. Uvaysiyning "Qil amon, yo rab, aduvlar majorasidin meni ..." deb boshlanuvchi she'ri qaysi janrda yozilgan?
A) muhammas B) tarjiband
C) masnaviy D) g'azal

20. Kelishik shakllari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang. 1) ot va otlashgan so'zga qo'shiladi; 2) tobe so'zni hokim so'zga bog'laydi; 3) kelishik qo'shimchalari ko'makchilar bilan sinonim bula oladi; 4) kelishik qo'shimchalari qo'shilganda so'z asosida fonetik hodisa kuzatilmaydi
A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 4
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3

21. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?
Ushbu jumla xalq og'zaki ijodining qaysi janriga mansub?
A) matal B) maqol
C) tez aytish D) topishmoq

22. Quyidagi qaysi ko`makchi(lar) bosh va jo`nalish kelishigi shaklidagi isimlarga qo`shiladi?
1) ko`ra; 2) sayin; 3) tomon; 4) qaramay; 5) muvofiq; 6) bo`ylab
A) 1,3,5 B) 3,4 C) 3 D)1,3,4,5

23. Sanasak, muvaffaqiyatlar ko`p, ammo ular orasida eng muhimi, hamma xalqqa, hamma elga zarur bo`lgan ne`mat-tinchlik bayrog'i bilan yangi asrning issiq, nurli quchog'iga talpinapmiz.
Ushbu gapta nechta so`z fonetik o`zgarishga uchragan?
A) 4ta B) 6ta C) 3ta D) 5ta

24. 1) bog' (bir bog' piyoz); 2) bog' (bog'ni aylanmoq) ushbu omonimlar qaysi tilga xos ekanligi haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
A) 1- o'zbekch so'z; 2- tojikcha so'z
B) 1- tojikcha so'z; 2- o'zbekcha so'z
C) 1,2 – tojikcha so'z
D) 1,2 – o'zbekcha so'z

25. "Eng eski turkiy adabiyot namunalari", "O'zbek adabiyoti namunalari", "Sharq shaxmati", "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi", "Fors shoiri Umar Xayyom" singari ilmiy asarlar yaratgan adib kim?
A) Avloniy B) Hamza
C) Fitrat D) M. Shayxzoda

26. Kumush choyshab yopib dalalar qor qo'yni uxlab yotadi.
Ushbu gapdagi kumush choyshab birikmasida ma'no ko'chishining qaysi turi qo'llangan?

A) sinekdoxa B) metafora
C) vazifadoshlik D) metonimiya

27. Yomon bilan ulfat bo'lma, yur yiroq,
Yo'lingga don sochib, qo'yadi tuzoq.
Yoyni egri ko'rib, to'g'riligidan-
O'q undan qanchalik qochganiga boq.

She'r muallifi kim?
A) Ahmad Yassaviy B) Pahlavon Mahmud
C) Mashrab D) Bobur

ONA TILI VA ADABIYOT

15. -lik qo'shimchasi haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?
A) mavhum ot yasaydi
B) shaxs oti yasaydi
C) o'rin – joy oti yasaydi
D) faoliyat-jarayon oti yasaydi

16. 1) T. Murod "Otamdan qolgan dalalar"; 2) T. To'la "Do'nan"; 3) P. Qodirov "Uch ildiz"; 4) S. Ahmad "Ufq"; 5) O'. Hoshimov "Dunyoning ishlari"; 6) X. To'xtaboyev "Sariq devni minib"; 7) A. Qahhor "O'tmishdan ertaklar"; 8) O. Yoqubov "Oq qushlar, oppoq qushlar"
Berilgan asarlardan katta epik janrga mansub asarlarni toping. roman
A) 2,3,7,8 B) 3,5,6,8
C) 1,3,4,6,8 D) 1,3,4,5,8

17. Har kimki vafo qilsa, vafo topg'usidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topg'usidir.
Misralardagi olmoshlar qanday ma'no ifodalagan?
A) belgini aniqlash uchun qo'llangan
B) mavjudlik, voqea haqidagi tasavvurni bildirgan
C) to'pdan ajratilgan shaxs ma'nosini ifodalagan
D) shaxs,belgi, harakat-holatni jamlab ifodalagan

18. Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen,
Aytgil,do'stim, nima qildik Vatan uchun?
(Iqbol Mirzo)
Ushbu she'riy parchada egalarni aniqlang
A) sen, sen, sen
B) sen, sen, sen, do'stim
C) suvlar, nazar, do'stim
D) sen,sen sen, Vatan

19. Tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan javobni toping.
A) Sen o'g'limsan, xotining kelinim
B) To'g'ri bo'ling-baxovotir bo'lasiz.
C) Suv keldi- nur keldi.
D) Shu fe'llari yaxshi; hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar. :

20. Qaysi qatordagi so'zlar xato yozilgan?
A) bir zum, hamma vaqt, sen-chun
B) foto-apparat, yildan-yilga, teletanlov
C) tarjimayi hol, dardi bedavo, nuqtayi nazar
D) bug'doyrang, maymunsifat, ertapishar

21. Quyidagi parcha muallifini va misralarda tilga olingan shoh nomini aniqlang
Ayo til turat madh, o'tingil qani,
Men artut qilayin, shohimga ani.
Shohim madhi birla bezadim kitob,
O'qug'li kishining sevinsin joni
A) Mahmud Qoshg'ariy; Abulqosim Abdullo binni Muhammad al-Muqtado
B) Nosiruddin Rabg'uziy; Nosiriddin To'qbo'g'a
C) Ahmad Yugnakiy; Dod Sipohsolorbek
D) Yusuf Xos Hojib; tabg'ach ulug' Bug'roxon

22. qaysi baytda tazod san'ati ikkita juftlikda yuzaga chiqqan?
A) Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,
Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda.
B) Kuymasin bu savdoda ne uchun dimog'imkim,
Ranj-u g'unchada dono, kechsa shod nodonlar
C) Hajr aro sabrim yo'qi anduh aro ko'p muztarib,
Ashkdin seli balo, oh o'tidin har dam alam.
D) Ko'ngl istar yorlar birla hamisha shod bo'l,
Mendin-u kimdinki, ko'ngling istamas, ozod bo'l.

23. "Zarbulmasal" da keltirilgan "Yaxshi ishni bajarish uchun fol ochib o'tirish shart emas" degan fikr qaysi shoirga tegishli?
A) Mashrab B) Firdavsiy
C) Rudakiy D) Hofiz Sheroziy

24. Quyidagi gapda qo'llangan ism asosli yasama so'zlarda qanday tovush o'zgarishlari sodir bo'lgan?
Yigitga qo'yilgan ayblovlar shundan dalolat beradiki, tergovchilar uning o'rnatilgan tartibni yaxshi anglamaganini hisobga olmasdan xulosa chiqarishga shoshilishgan.
(Gazetadan)
A) 3ta tovush almashinishi; 1ta tovush tushishi
B) 4ta tovush almashinishi
C) 1ta tovush tushishi va 2ta tovush almashinishi
D) 1ta tovush orttirilishi, 1ta tovush tushishi va 3ta tovush almashinishi

25. Qaysi gapdagi ajratilgan bo'lakni sanash ohangi orqali uyushiq bo'lakli gapga aylantirish mumkin?
A) Unda, Halimning ukasida, qiziqarli kitoblar ko'p

B) Lingvistika- tilshunoslik, mening sevgan fanim bo'ladi.
C) Berilgan gaplarni ohang yordamida uyushiq bo'lakli gapga aylantirib bo'lmaydi.
D) Shu farzandimning-ko'zim qorasining-elning ardog'ida bo'lishini xohlayma

ONA TILI VA ADABIYOT

1.Guvohnoma,nizom kabi hujjatlar qo'llanishi, maqsad va vazifasiga ko'ra qanday turdagi hujjat hisoblanadi?

A) tashkiliy hujjatlar
B) farmoyish hujjatlari
C) ma'lumot-axborot hujjatlari
D) xizmat yozishmalari

2. Umidaning "sen" degani Hafizaga juda yoqdi- bu juda yaqinlik bekgisi.
Tilning barcha o'rinlarida hosil bo'luvchi undoshlargina ishtirok etgan so'z qaysi gap bo'lagiga bog'lanib kelgan?

A) holga B) kesimga
C) egaga D) aniqlovchiga

3. Qaysi so'zlarda n undoshi qo'yiladi?
1) sara...jom; 2) su..bul; 3) ta..bur (cholg'u asbobi); 4) ta..beh

A) 4 B) 1,2,4 C) 1,2,3,4 D) 3,4

4. Ushbu parchada nechta sodda gap mavjud?
Luqmoni Hakimdan so'radilar:
"Odamlarning dahosi kim?" Javob berdilar:
"Hayot tashvishidan diltang bo'lmagani ".

A) 3 B) 2 C) 5 D) 4

5. Ul sanamkim,suv yaqosinda paritek o'ltirur,
G'oyati nozuklukidin suv bila yutsa bo'lur.
Atoyi g'azaliga mansub ushbu matla'da qanday she'riy san'at qo'llangan?
1) mubolag'a; 2) tashbeh; 3) tanosub; 4) tarse'; 5) tazod; 6) ishtiqoq

A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 6
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

6. Qaysi qatorda ko'chirma gapli qo'shma gapning ko'chirma gap qismida qo'llangan gap payt ma'nosini bergan?

A) Egamberdi rais odamlarga qarab: "Suv keldi-nur keldi", - dedi o'zgacha zavq bilan.
B) Nodira opa qo'shnisiga dedi: " Yomonga o'lim yo'q, yaxshiga yurim"
C) Mashhur qora qashqir ayg'irning chiovirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar gaplashib turgan Komilaga yuzlandi.
D) Nazira ukasiga qarab dedi: "Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi"

7. Uyushiq bo'laklar haqidagi barcha to'g'ri fikrlarni aniqlang.
1) har bir uyushiq bo'lakning o'z ayrim urg'usi bo'ladi; 2) agar uyushiq bo'laklarning har birida Grammatik shakllar takrorlansa, bunday vaqtda uyushiq bo'laklarning har biri sanab ko'rsatiladi; 3) agar grammatik vositalar uyushiq bo'laklarning oxirgisi tarkibida kelib, hammasi uchun tegishli bo'lsa, uyushiq bo'laklarning har qaysisi ta'kidlanadi

A) 1 B) 1, 2 C) 1, 3 D) 1, 2, 3

8. Qismlari yasama so'zlardan tashkil topgan antonym juftliklarni belgilang.
1) kata-kichik; 2) yaxshi-yomon; 3) issiq-sovuq; 4) mehnatksh- ishcham; 5) so'zladi-gapirdi; 6) achchiq-chuchuk

3, 6

9. Yig'ilishda hayotiy tajribasi va obro'- e'tibori bilan yurtimizda tanilgan keksalar ishtirok etishdi.
Berilgan gapda so'z qo'shilmasini bog'lovchi vositasi toping.

A) teng bog'lovchi
B) bog'lovchi vazifasidagi shakllar, ko'makchi
C) egalik, kelishik
D) ohang bog'lovhi

10. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?
Ushbu jumla xalq og'zaki ijodining qaysi janriga mansub?

A) metal B) topishmoq
C) tez aytish D) maqol

11. Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen,
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?
"Iqbol Mirzo"
Ushbu she'riy parchada buyruq maylidagi fe'llar necha marta qo'llangan?

A) 2 B) 5 C) 4 D) 3

12. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o'zini, eng avvalo, O'zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan hudud vakili, aytaylik, xorazmlik,

samarqandlik yoki Farg'ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. (I.Karimov)
Ushbu gapda tovush o'zgarishiga uchragan so'zlar qaysi turkumga tegishli?
A) ot, olmosh B) fe'l, sifat
C) ot, sifat D) fe'l, olmosh

13. So'z va leksema haqidagi bildirilgan qaysi fikr to'g'ri?
A) so'z ham, leksema ham morfologiya birligi
B) so'z morfologiya birligi, leksema leksikologiya birligi
C) ikkalasi ham morfologiya, ham leksikologiya birligi
D) so'z ham, leksema ham leksikologiya birligi

14. Bolaga e'tibor bermasangiz, uning tarbiyasi buzilishi mumkin.
Berilgan qo'shma gap turiga belgilang.
A) Bu gap soda yoyiq gap
B) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
C) shart ma;nosini ifodalagan hol ergash gapli qo'shma gap
D) payt ma'nosini ifodalagan hol ergash gapli qo'shma gap

15. O'z fikrini o'ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi.
Ushbu gapda nechta so'z yasovchiqo'shimcha ishtirok etgan?
A) 3 B) 5 C) 2 D) 4

16. "U yoshligidan hayotning bor mashaqqatlarini boshidan kechirgan. Iqtisodiy ahvoli sabab universitetni tashlagan".
Ushbu parcha kimning tarjimayi holidan olingan?
A) Xans kristian Andersen
B) Chingiz Aytmatov
C) Jek London
D) Janni Rodari

17. Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
(Iqbol Mirzo)

18. Muallif gapi ko'chirma gapning ichida kelsa, muallif gapidan so'ng ko'chirma gapning qolgan qismi qanday tinish belgilari bilan davom etadi?
A) so'roq yoki undov va tire bilan
B) nuqta va tire
C) vergul va tire
D) vergul va tire yoki nuqta va tire

19. Qaysi gapda uyushiq bo'laklar tarkibida fonetik o'zgarish bo'lgan so'zga bog'lanib kelgan?
A) Juda boy va ma'noli tilimiz bor
B) Talaffuz bilan imlo bir-biriga chambarchas bog'liqdir
C) Eshitib va o'qib o'rganish til vositasida amalga oshadi.
D) So'z belgi vs ms'noning birligidir.

20. " Kuntug'mish" dostonida qaysi qahramon xarakterida o'ziga bino qo'yganlik, qahri qattiqlik, ammo shu bilan birga ko'ngilchanlik belgilari ham namoyon bo'ladi?
A) Mohiboy B) Qoraxon
C) Buvraxon D) Azbarxo'ja

21. "Qoraxonning ulug' xotinidan bir o'g'li bo'ldi. Ko'rki oy, kundin ortiq ortiq, uch kecha-kunduz onasini emmadi, har kecha ul o'g'lon onasining tushiga kirib aytur erdi: ona, musulmon bo'lg'il, agar bo'lmasang, o'lsam, o'laman, ammo emmasman, teb erdi..."
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) "Miftoh ul-asl"
B) "Qissasi rabg'uziy"
C) " Shajarayi turk"
D) "Maqsad ul- atvor"

22. Tongda suv sepilgan asphalt yo'lkalar salqin, ozoda, tovsilib qolgan kuzak gullari sof havoda xush bo'y taratib turadi.
Ushbu gapda qaysi sifatlar otga bog'langan?
A) salqin, ozoda
B) salqin, ozoda, kuzak,
C) sof, xush
D) asphalt, kuzak

23. Har kimki vafo qilsa, vafo topg'usidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topg'usidir
Misralardagi olmoshlar qanday ma'no ifodalagan?

A) mavjudlik, voqea haqidagi tasavvurni
B) shaxs, belgi, harakat-holatni jamlab
C) to'pdan ajratilgan shaxs ma'nosini
D) belgini aniqlash uchun qo'llangan

24. Qo'shma vaznda yozilgan she'riy parchani aniqlang.

A) Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?

B) Qani ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag'rimni ohang?
Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am.

C) O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.

D) Ozmuncha jangler qilmadim men, 9
Ozmuncha qonlar chekmadim. 8
Ozmuncha tog'lar oshmadim men,
Ozmuncha suvlar ichmadim.

25. Fe'llarda kelasi zamon ma'nosi qanday hosil qilinadi?

1) fe'lning -a ravishdosh shakliga -yotir qo'shimchasini qo'shish bilan; 2) fe'lning -a ravishdosh shakliga -jak qo'shimchasini qo'shish bilan; 3) fe'l asoslariga -gusi qo'shimchasini qo'shish bilan 4)

A) 1, 3, 4 B) 1, 3, 4
C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3

26. Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'rida qaysi o'zbek shoiri tilga olingan?

A) Alisher Navoiy
B) Zahiriddin Muhammad Bobur
C) Bobarahim Mashrab
D) Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat

27. "Ha to'xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir".

Ushbu parcha qaysi adib qalamiga mansub?

A) Avloniy B) Behbudiy
C) Fitrat D) Cho'lpon

28. Yomon bilan ulfat bo'lma, yur yiroq,
Yo'lingga don sochib, qo'yadi tuzoq.
Yoyni egri ko'rib, to'g'riligidan-
O'q undan qanchalik qochganiga boq.

She'r muallifi kim?

A) Pahlavon Mahmud
B) Bobur
C) Ahmad Yassaviy
D) Mashrab

29. Oybekning " Navoiy" romanida Alisher Navoiyni kim "she'rning sheri" deb ataydi?

A) Husayn Bayqaro
B) Abdurahmon Jomiy
C) Kamoliddin Behzod
D) Badiuzzamon Mirzo

30. Shaxs-son ma'nosini ifodalovchi -m, -ng, -k, -ngiz qo'shimchalari fe'lning qaysi shakllaridan keyin qo'shiladi?

A) hozirgi zamon hamda buyruq-istak mayli shakllaridan keyin
B) kelasi zamon hamda buyruq-istak mayli shakllaridan keyin
C) o'tgan zamonning –b (-ib), shart maylining –sa shakllaridan keyin
D) o'tgan zamonning –di, shart maylining –sa shakllaridan keyin

31. Tinglash ham so'zlashga kam baholanmaydigan mehnat bo'lib, uni qonun-qoidalariga amal qilsangiz, yaxshi suhbatdosh bo'lishni birinchi va eng muhim shartiga amal qilgan bo'lasiz.

Ushbu gapda kelishik qo'shimchalari necha o'rinda noto'g'ri qo'llangan?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

32. Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi "Sab'ayi sayyor" dostoni haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

A) Shoir dostonga Shahrisabz, Xorazm haqidagi maxsus hikoyalar kiritgan
B) Aruzning sari' bahrida yozilgan.
C) Aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan

D) Bu doston bilan shoir o'zbek adabiyotida ruhiyat tasviri mavzusini boshlab bergan.

33. Berilgan gaplarning qaysi birida 3 ta so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan?
1. To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, shuning uchun hamisha rost so'zlashga odatlan.
2. Kamtar bo'l, chunki kamtarlik insonni kamolottga boshlaydi.
3. O'z fikrini o'ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi.
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 1, 2, 3 D) 1, 2

34. Quyidagi she'r qaysi janrda yozilgan?
Qaysi erda bo'lsa uqush birla o'g,
Ani er atagil, necha o'gsa o'g.
Uqush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,
Yavuz ersa kaz te, kichig ersa o'g.
A) g'azal B) tuyuq
C) ruboiy D) qit'a